

TOG'AY MUROD QISSALARIDA GENDER IFODALOVCHI IBORALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xolmirzayeva Latofat¹

Sh.R. Usmanova²

Alfraganus Universiteti

KEYWORDS

frazeologiya, matal, gender,
idioma,
lingvomadaniyatsunoslik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada mentalitetimizning nodir bilimdoni bo'lgan Tog'ay Murod qissalarida qo'llanilgan frazeologizmlarning gender xususiyatlari lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilgan. Qissalarda foydalanilgan frazeologik birliklarning milliy-madaniy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, yozuvchining frazeologizmlardan mohirona foydalanishi, ular asosida asarda ibora qo'llash mahorati ko'rsatib berilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15362471**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH. Jahon va o'zbek tilshunosligida til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til birliklarining yondosh hodisalar bilan munosabatini tahlil etishning zamonaviy talqini va bayonlari yuzaga kelmoqda. Bu zamonaviy yo'nalish va konsepsiyalar asosidagi tadqiqotlar tilning nafaqat kommunikativ, balki akkumlyativ funksiyalarini ham namoyon etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Frazeologik birliklar va turg'un birikmalarning o'zaro semantik va sintaktik munosabati, farqli jihatlari tadqiqi dolzarb hisoblanadi.

“Hozirgi zamon lingvistikasida til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasi, konsept tushunchasi va uning bag'rida lingvomadaniy tahlilning metod va usullari tadqiqi amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan o'rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilish ham tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi”². “Til birliklarining lingvokulturologik tadqiqi jarayonida va

¹ Alfraganus Universiteti 2-kurs magistranti

² f.f.d., prof. Alfraganus Universiteti

² Маматов А. Фраzeологизмларнинг антропоцентриқ лингвомаданий таdqиқи. –Жиззах. Ўзбек фразеологияси ва

natijasida ularning mohiyati to'laroq ochiladi, amaliy ahamiyati oshib boradi. Frazеologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir"³. O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti va uning istiqboli bilan bog'liq muammolarni aynan lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish tilimizning jahon tillari orasidagi munosib o'rnini belgilashda o'ziga xos mohiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda inson faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan antropotsentrik tadqiqotlar yuzaga kelyapti. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog'liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalar ekan, shunday hodisalarni emotsional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etib boradi. Mazkur tadqiqotdagi til materiallari o'zbek milliy- madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi aspektlarini tahlil qilish va tavsif etishga yo'naltirilgandir . Til u yoki bu millat madaniyatining elementi, qismi, fakti, omili, shakli, shamoyili, manbasi, saqllovchisi, xotirasi, translyatori, mavjudlik sharti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik integrativ mustaqil fan sohasi sifatida olamning lisoniy manzarasi hamda til shaxsining milliy o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi va yuzaga chiqaradi.

Bugungi kunda jahon va o'zbek tilshunosligida til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til birliklarining yondosh hodisalar bilan munosabatini tahlil etishning zamonaviy talqini va bayonlari yuzaga kelmoqda. Bu zamonaviy yo'nalish va konsepsiyalar asosidagi tadqiqotlar tilning nafaqat kommunikativ, balki akkumlyativ funksiyalarini ham namoyon etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Frazеologik birliklar va turg'un birikmalarning o'zaro semantik va sintaktik munosabati, farqli jihatlarini tadqiqi dolzarb hisoblanadi.

"Hozirgi zamon lingvistikasida til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasi, konsept tushunchasi va uning bag'rida lingvomadaniy tahlilning metod va usullari tadqiqi amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik pradiqma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan o'rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilish ham tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi". "Til birliklarining lingvokulturologik tadqiqi jarayonida va natijasida ularning mohiyati to'laroq ochiladi, amaliy ahamiyati oshib boradi. Frazеologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir"⁴. O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti va uning istiqboli bilan bog'liq muammolarni aynan lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish tilimizning jahon tillari orasidagi

фразеографияси масалалари.-, 2019. –Б. 65.

³ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019. –Б.12.

⁴ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019. –Б. 11.

munosib o'rnini belgilashda o'ziga xos mohiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda inson faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan antropotsentrik tadqiqotlar yuzaga kelyapti. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog'liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalar ekan, shunday hodisalarni emotsional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etib boradi. Mazkur tadqiqotdagi til materiallari o'zbek milliy- madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi aspektlarini tahlil qilish va tavsif etishga yo'naltirilgandir . Til u yoki bu millat madaniyatining elementi, qismi, fakti, omili, shakli, shamoyili, manbasi, saqlovchisi, xotirasi, translyatori, mavjudlik sharti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik integrativ mustaqil fan sohasi sifatida olamning lisoniy manzarasi hamda til shaxsining milliy o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi va yuzaga chiqaradi.

Frazeologik birliklar asrlar davomida shakllanib, xalq tarixini, madaniyatini, turmush tarzini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lib kelgan va bu omillarning semantik tabiatini, boshqa tillarda muqobili uchramaydigan mental ko'rinish va shakllarini lingvokulturologik tamoyillar asosida ilmiy tadqiq etish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb masalasi hisoblanadi. Til mohiyatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan tadqiq etish, til va madaniyat munosabati, milliy mentallikni his qilish, anglash aynan til mohiyatini, uning kommunikativ vazifasini chuqur va ilmiy o'rganish ham muhimdir.

Endi Tog'ay Murod qissalaridagi frazeologik birliklarni gender xususiyatiga ko'ra lingvomadaniy tahlil qilamiz.

"Iziga burildi. Bir ikki qadam bosdi"⁵(YMY,18).

Ushbu jumlada **"iziga burildi"** iborasi qo'llanilgan. Iziga burilish –qaytish degan ma'noni anglatadi.Yozuvchi o'z asarlarida frazeologizmlardan ham o'rinli foydalangan. Quyidagi iboraga e'tibor beraylik:

Bakovul polvonlar **ko'ngliga qo'l soldi- qo'l soldi, favqulodda xatolikka yo'l qo'ydi.** ..(YMY,35)

Demak, bu yerda ko'ngliga qo'l solmoq iborasi qo'llangan.Ya'ni eshitib ko'rish, tinglash degan ma'nolarni anglatadi. Adib asarni o'qishligini oshirish uchun ham shevaga xos so'zlar, so'z qochirimlaridan ham o'z o'rnida foydalangan Bu esa asar qimmatini yanada oshishiga zamin yaratgan.

"Davra gursillab turdi, davra hayqirib turdi!"Bo'ri
polvon vodiylklarga qaradi.

"Idoradan qorovul uyqusirab chiqib keldi. Ertalabdan paydo bo'lmish otliq kim ekanini bilish uchun mirobga gap qo'shdi:

" Bo'ri polvon eski raisga **ichi achib-achib ketdi.**

-Ha - a-a... Hozir nima ish qilayapsiz,rais bova? – dedi Bo'ri polvon"(YMY, 68).

⁵Izoh: Bundan keyin asar nomlari qisqartmalarda beriladi.Avval qisqartma, keyin uning sahifasi berib boriladi.

Ko'rinib turibdiki, yozuvchi ushbu jumlada **ichi achib-achib ketdi** iborasini qo'llagan. Iborada erkak genderligi ochiqlangan. Bu iboraning ma'nosi rahmi keldi, qayg'urdi. Yozuvchi bu iborani qo'llash orqali o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan ichki kechinmalarni yoritib berishga harakat qilgan. Ushbu iboraning tag zamiriga e'tibor beradigan bo'lsak, insoniylik, odamiylik kabi fazilatlar ochiqlanadi. Ya'ni o'zbek millatiga xos bo'lgan qadriyatlar, umuminsoniy fazilatlardan adibimiz juda o'rinli foydalangan.

"Birodarlar, ko'rgilik, ko'rgilik!

Bir erta uyg'onib kallamga qo'l yugurtirdim. Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi. **Parvoyim falak bo'ldi**, yura berdim. Onamga-da aytmadim" (OYO, 101).

Ko'rinib turibdiki, bu matnda **parvoyim falak bo'ldi**, iborasi qo'llanilgan. Yozuvchi ushbu iborani erkak qahramon tilidan ifodalagan. Bu iborani qo'llash orqali beparvolik, beg'amlik tuyg'ularini ilgari surgan. Asar qahramoni Ziyodullaning o'z dardu- hadratleri bilan yolg'iz o'zigina ovora bo'lishi, dardini kimgadir aytib undan yupanch so'rashni o'ziga ep bilmasligini ko'ramiz. Biz o'zbeklarda shunday, kasal bo'lsak darhol shifokor huzuriga yugurmaymiz. Shunchaki o'tib ketar qabilida beparvolik bilan ish ko'ramiz. Bu esa har doim ham yaxshilik bilan yakun topmasligi mumkin.

Quyidagi iboraga e'tibor qaramiz:

"Ot kishnagan oqshom" qissasidagi quyidagi jumлага e'tibor qaratamiz:

"Kattalar qiligi hamiyatimga tegdi. **Tishimni tishimga zo'rg'a bosib turdim**" (OKO, 141).

Ushbu jumladagi ibora **tishini tishiga qo'ymoq** iborasidir.

Ibora chidamoq, sabr qilmoq degan ma'nolarni anglatadi. Demak, bu ibora orqali insonning sabr- toqatli bo'lishi, hayotdagi sinovlarga sabr qilishi, o'zini idora qila bilishi kabi xislatlarni ilgari suradi. Adib o'z qissalarida iboralardan juda mohirona foydalangan.

Asarda ishlatilgan "gapga suqildi" iborasiga e'tibor qaratamiz. (OKO, 144) Ushbu ibora orqali yozuvchi hamma narsaga qo'shib ketaveradigan insonlarni nazarda tutyapti. Jamiyatda shunday toifadagi insonlar ham borligini yozuvchining shu iborani qo'llashidan ham bilib olish mumkin. Ushbu ibora orqali erkak genderligining yuqori ekanligini yana bir bor ko'rishimiz mumkin.

Samolyot bir pasaydi, bir ko'tarildi. **Yuragim tovonimga tushib ketganday bo'ldi**. Keyin joyida turib qoldi. Nag'masi ko'p bo'ldi. Odamning yuragini yordi. Ulov bo'lsang sidirg'a yur, ukkag'arning samolyoti, dedim (OKO, 149). Ibora erkak qahramon tilidan aytilgan va shu sababli erkak genderligi ifodalangan. Jumlada ishlatilgan iboradan ko'rinib turibdiki, bu ibora qo'rqish, cho'chish ma'nolarini anglatadi. Chunki bu ibora asosan, biron narsadan qo'qqanda ishlatiladi. Yozuvchi ushbu ibora orqali asarning badiiy qiymatini oshirgan. Aslida yurak tovonga tushmaydi, lekin qo'rquv natijasida butun oyoq-qo'l, vujud titroqqa tushadi. Shu sababdan ham yozuvchi ushbu jarayonni ochib berishda berilgan iboradan o'rinli foydalangan. Yozuvchining so'z qo'llash mahoratining g'oyat yuksakligidan dalolat beradi.

“Jo’ra boboning otida chopishni azm etdim.

–Ko’zingga qarab chop! – dedi Jo’ra bobo.”(OKO,191) Ushbu iborada yozuvchi har bir narsaga diqqatli bo’lishni, har qanday vaziyatda ham inson e’tiborli bo’lishini nazarda tutadi. Inson aslida o’tkinchi narsalarga ovora bo’lib, haqiqatga kelganda to’g’ri munosabatda bo’la olmaydi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo’lsak, inson dunyoning hoyu havaslariga ishonib qolmasdan haqiqat sari ildamlamog’i kerak.

“Tishimni tishimga bosdim.Yuzlarim lovullab yondi.”(OKO,212) Keltirilgan iboradan ma’lum bo’ladiki, ibora asar qahramoni Ziyodullaning tilidan aytilgan. Bu ibora erkak genderligiga yorqin misol bo’ladi.Inson kezi kelganda chidamli, sabrli, o’zini idora qila olishi lozim. Ayrim paytlarda insonni sukut saqlashi ham yaxshilik uchun debochadir. Zero, inson ko’p narsalarga sabr va matonat ila yetishini ushbu ibora orqali ham bilish mumkin. Yozuvchi asar qiymatini oshirishda shu kabi iboralardan o’rinli foydalangan.

“Ho’ngrab yig’lab yubordim. O’pkamni bosayin dedim, bosolmadim.”(OYO, 215) Ushbu iborada yozuvchi erkak genderligini ochiqqlagan.Ibora orqali insonning hayot sinovlari oldida ojiz ekanligini ifodalaydi. Hayotda har qanday holat bo’lishi mumkin. Biz har bir narsaga o’z dunyoqarashimiz bilan nazar tashlaymiz.Gohida baxli onlar hukm sursa, gohida qayg’uli kunlar keladi. Inson goh baxtdan quvonib yig’lasa, goh esa g’amdan ozor chekadi. Bu hayotiy haqiqatdir. Yozuvchi ushbu ibora orqali ushbu haqiqatni tarannum etadi.

“Aqalli, bir, bir yomonligimizni ko’rsa bo’ldi! Bizdan qo’lini yuvib, qo’ltiqqa uradi. Biz bilan salom-alik qilmaslik payida bo’ladi.”(OYO, 219)

Berilgan parchada bir qator iboralar keltirilgan. Bu iboralarda asosan, asar qahramoni oymomoning holati bayon qilingan.Ya’ni uning farzandsizlikdan azob chekishi, g’am- alamda yashashi keltirilgan iboralarda o’z aksini topgan.Hayot zarbalaridan o’z yog’iga yolg’iz o’zi qovuriladi.Chunki dardlashadigan na onasi, na opa- singlisi bor.Dardini kimga ham aytardi. Yolg’izgina akasi va kelinoyisi bor, xolos.U ham boshqalar kabi mag’rur yurishni xohlaydi, boshqalar kabi farzandlar, nabiralar suyishni istaydi. Lekin nailoj, alloh farzanddan siqqan.Unga qolsa etak-etak farzand ko’rmasmidi.Eri Qoplonni ham el oldida, ota-onasi oldida ta’na -malomatlarga qoldirarmidi. Bir kam dunyo deganlari shu bo’lsa kerak-da. Yozuvchi Oymomo obrazi orqali o’zbek ayolining sabrliligini ifodalaydi.

Xulosa shuki, xalqlarning milliy o’zligini anglashi, milliy ong va tafakkurdagi o’zgarishlar va uning tildagi in’ikosi konsept mohiyatini tushunish orqali o’zbek tiliga xos olamning lisoniy manzarasini yanada yaqqol tasavvur qilish imkoniyatini beradi. O’zbek milliy-madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi chuqur ilmiy tahlili frazeologik birliklarning semantik-funksional hamda grammatik xususiyatlarini yanada faollashtirish, xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy hayoti, etnik kelib chiqishi kabi jarayonlarni batafsil o’rganish imkonini beradi va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi

Shunday qilib, lingvomadaniy birliklar, xususan, genderlik xususiyatiga ega iboralar bugungi tilshunoslikda ahamiyatli mavzulardan biridir. So’nggi yillarda frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan o’rganish yanada ko’payib bormoqda

Frazeologik ma'noning o'ziga xos xususiyati shundaki, u frazemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlarning tabiatini belgilab beradi. Frazeologizmlar dunyo obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – T.: Bookmany print, 2022.
2. Маслова, В.А. Лингвокультурология, – М.: Academia, 2001.
3. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – М.: Наследие, 1997.
4. Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД. – М., 1952.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'qi-tuvchi nashriyoti, 1978.
7. Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом. Қиссалар. Т.: Шарқ, 1994.